

“TASDIQLANGAN”
“KAFIL SUG'URTA” AJ
Boshqaruv raisi F.A.Artikov
2024- yil 5- yanvar

“BAXTLI OILA” Jismoniy shaxslarni baxtsiz hodisalardan oilaviy kompleks sug'urta qilish Ofertasi

Ushbu Ommaviy oferta (bundan buyon matnda Oferta deb yuritiladi) “KAFIL-SUG'URTA” AJ ning (bundan buyon matnda Sug'urtalovchi deb yuritiladi) noma'lum doiradagi jismoniy shaxslarga (bundan buyon Sug'urta qildiruvchi deb yuritiladi) yullangan quyidagi sug'urta shartlarida sug'urta shartnomasini Sug'urtalovchining axborot tizimlari vositasida tuzish taklifi bulib hisoblanadi. Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi shartnoma taraflaridir.

Mazkur Ofepta shartlarining qabul qilinishi va shartlashilgan sug'urta mukofotining to'lanishi uning shartlarini akseptlash hamda Sug'urta qildiruvchining Sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi bo'lib hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlanganidan keyin unga elektron sug'urta polisi yuboriladi va Sug'urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq Oferta shartlarining qabul qilinishi mazkur Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilingan deb hisoblanadi va u bilan quyidagilarga rozilik ifodalanadi:

- mazkur Oferta shartlari, jumladan unda bayon qilingan sug'urta shartlariga rozilik;
- arizani to'ldirishda ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlar bilan sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan tarzda ishlov berish yuli orqali 5 yil muddatga ishlashga, jumladan ularni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, ulardan foydalanish, ularni egasini ko'rsatmaslik, bloklash, yo'q qilishga (yo'q qilish haqida xabar qilmagan holda), shuningdek sug'urta shartnomasini bajarish, ichki hujjat aylanmasini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxslarga ularni berishga rozilik.

Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining internet resursi vositasida Sug'urta shartnomasini tuzish natijasida o'z huquqi va muomalaga layoqatligini tasdiqlaydi, shuningdek o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgarlikni anglaydi.

Sug'urtalovchining internet resursida onlayn tarzda Sug'urta shartnomasini tuzish uchun Sug'urta qildiruvchidan uning elektron pochta manzili (agar bor bo'lsa) va mobil telefon raqami mavjudligi talab qilinadi.

Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchining internet resursida Sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur va muhim bo'lgan barcha ma'lumotlarni kiritish Sug'urta uchun ariza bo'lib hisoblanadi.

Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 933-moddasiga muvofiq sug'urta siri saqlashga javobgar bo'ladi. «Oferta», «Sug'urta shartnomasi» va «Sug'urta polisi» havolalari bundan buyon matnda mazkur elektron hujjatga nisbatan bir xil ahamiyatga ega bo'ladi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu “BAXTLI OILA” sug'urta turi Qoidalari, sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligi hamda «KAFIL-SUG'URTA» aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda «Cug'urtalovchi» deb ataladi) Ustaviga va umumiy sug'urtaning 1,8,9-klasslariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, jismoniy shaxslarni (bundan keyin «Sug'urta qildiruvchi» deb yuritiladi) baxtsiz hodisalardan oilaviy ehtiyot shart sug'urtalash va ularga tegishli imoratlarni kompleks sug'urtalashning asosiy shartlarini belgilab beradi.

1.2. Cug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi tomonidan “BAXTLI OILA” sug'urta turi bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) da ko'rsatilgan haq (sug'urta mukofoti) to'langan taqdirda, ushbu Qoidalarda qayd etilgan muddatlar, shartlar va istisnolarga muvofiq sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda,

sug'urta summasi doirasida va pul o'tkazish yo'li bilan sug'urta tovonini to'lash yoki ta'mirlash-tiklash ishlarini bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.3. Sug'urta qildiruvchining istagi yoki boshqa sabablarga ko'ra, "BAXTLI OILA" sug'urta turi bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) barcha sug'urta ob'ektlari yoki alohida sug'urta ob'ekti bo'yicha ham tuzilishi mumkin.

II. ISHLATILADIGAN ASOSIY ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFI:

- | | |
|--|---|
| 2.1. Sug'urta qildiruvchi | Sug'urtalovchidan sug'urta polisini xarid qilgan, muomala layoqatiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi barcha fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar. |
| 2.2. Sug'urtalangan shaxs | Hayoti va/yoki sog'lig'i bilan bog'liq mulkiy manfaatlari sug'urta ob'ekti bo'lgan va sug'urta shartnomasi uning foydasiga tuzilgan jismoniy shaxs. |
| 2.3. Naf oluvchi | Sug'urtalangan shaxsning yozma roziligi bilan sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) ga ko'ra sug'urta to'lovini oluvchi jismoniy shaxs. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) da Naf oluvchi ko'rsatilmagan bo'lsa va sug'urtalangan shaxs halok bo'lsa, sug'urtalangan shaxsning merosxo'rlari naf oluvchi bo'ladilar. |
| 2.4. Imoratlar | O'zbekiston Respublikasida Sug'urta qildiruvchilarga tegishli xususiy mulki hisoblanuvchi, foydalanishga yaroqli, doimiy bir joyga qurilgan, o'rnatilgan va devorlari hamda tomi bo'lgan imoratlar-uylar; ko'p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan, obodonlashtirish elementlari bo'lgan umumiy yer uchastkasi bilan qamrab olingan bir nechta uydagi xususiy imoratlar. |
| 2.5. Sug'urta shartnomasi | Sug'urta shartlarini o'z ichiga olgan va sug'urta polisini topshirish yo'li bilan, Sug'urta qildiruvchining Sug'urtalovchi taklif etgan shartlarda shartnoma tuzishga rozi ekanligi Sug'urtalovchidan ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilib olish hamda sug'urta mukofoti to'lash orqali tasdiqlangan shartnoma. |
| 2.6. Sug'urta polisi | Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi tomonidan real vaqt rejimida shakllantirilgan seriya, raqamiga ega bo'lgan sug'urta qilish amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat. |
| 2.7. Sug'urta qiymati | Imoratning sug'urtalangan vaqtdagi haqiqiy bozor qiymati bo'lib, taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadi. |
| 2.8. Sug'urta summasi (puli) | Sug'urta hodisasi oqibatida ko'rilgan zarar qiymatini Sug'urtalovchi tomonidan qoplashning eng yuqori miqdori. |
| 2.9. Sug'urta mukofoti | Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ektini sug'urtalash uchun Sug'urta polisiga asosan to'lanadigan pul mablag'i. |
| 2.10. Sug'urta hodisasi | Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatini keltirib chiqaruvchi Sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan voqeaning yuz berishi. |
| 2.11. Sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma | Sug'urta hodisasi ro'y berganligini tasdiqlovchi va sug'urta tovonni miqdorini aniqlab beruvchi Sug'urtalovchi tomonidan rasmiylashtiriladigan hujjat. |
| 2.12. Sug'urta tovon | Ushbu Qoidalarda qayd etilgan holatlarda sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalangan shaxs (Naf oluvchi)ga sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'lari summasi. |
| 2.13. Sug'urta muddati | Sug'urta polisining amal qilish muddati. Sug'urta shartnomasi (polisi) da ko'rsatilgan, Sug'urtalovchi majburiyatlari amalda bo'ladigan davr. |
| 2.14. Geografik hudud | Sug'urta polisi amalda bo'lgan hudud. Ushbu Qoidalar bo'yicha geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi. |

2.15. Uchinchi shaxslar

2.16. Shartsiz franshiza

Sug'urta qildiruvchi yoki Sug'urtalangan shaxsdan boshqa har qanday shaxslar.

Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlarga ega bo'lmaydigan zararning ma'lum miqdori. Zarar miqdori franshiza miqdoridan oshsa, franshizaning ko'rsatilgan miqdori to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovonidan chegirilib qolinadi.

III. MAXSUS ATAMALAR

Qoida bo'yicha maxsus atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

3.1. Baxtsiz hodisa

Sug'urtalangan shaxsning hohish irodasiga bog'liq bo'lmagan ravishda to'satdan, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lib, uning tanasini shikastlanishiga, tana a'zolarini ishlash funksiyasini o'zgarishiga yoki o'limiga olib keluvchi voqea hodisalar: kuyish, muzlab qolish, cho'kish, (shamollash yoki kasallik tufayli vafot etishdan tashqari), elektr toki va yashin urishi, tabiat hodisalari hamda hayvonlar va hasharotlar tomonidan shikastlanishlar, g'arazli shaxsning hujumi, Sug'urtalangan shaxsning yiqilishi yoki ustiga biror bir narsani tushib ketishi, transport vositalarining (avtomobil, poyezd, tramvay va boshqalarni) ag'darilishi yoki ularning harakatlaridagi yo'l transport hodisalarida, mashina, mexanizmlardan va boshqa turdagi asboblardan foydalanayotganda olingan jarohatlar, to'satdan bo'g'ilish, tasodifan nafas olish yo'liga biror narsa tiqilib qolishi, zaharli o'simliklar, kimyoviy moddalar ta'sirida kuchli zaharlanish, sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlar, dorilar bilan tasodifan zaharlanish, tasodifan suyak sinishi, chiqishi, bo'g'im va to'qimalarning uzilishi, tana a'zolarini to'liq yoki qisman yo'qotilishi, tish sinishi, noto'g'ri tibbiy manupulyatsiya natijasida a'zolarining uzilishi va portlash oqibatida (shikastlanishi, nogiron bo'lishi, halok bo'lishi).

3.5. Yong'in

Maxsus mo'ljallangan joylardan tashqariga beixtiyor, inson hohish-istagisiz tarqalish xususiyatiga ega bo'lgan olov.

3.6. Portlash

Gaz yoki bug'larning kengayishiga asoslangan, katta miqdordagi energiya shiddat bilan otilib chiqishi. Rezervuar portlashi bo'lib rezervuar ichkarisida va tashqarisidagi bosim tenglashishiga olib keladigan darajada rezervuar devorlarining yorilishi. Agar rezervuar ichida kimyoviy reaksiyaning tez kechishi natijasida portlash sodir bo'lsa, uning devorlari yorilmagan bo'lsa ham, bundan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanadi. Vakuum yoki gazlarning siyraklashishi natijasida yetkazilgan zarar sug'urta qilinmaydi.

3.7. Yashin urishi

Mol-mulkdan mahrum bo'lishga (nobud bo'lishiga) olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'rtasidagi yoki bulut va yer o'rtasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

3.8. Zilzila

Yer qa'rida muntazam sodir bo'ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi.

3.9. Suv toshqini

Daryo, ko'l, dengiz sathining ko'tarilishi yoki damba, to'g'on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

3.10. Ko'chki

Shamol yoki yer usti yoki yerosti suvlarning ta'sirida, qirg'oq yon bag'irlarini yuvilishi va jinslarning og'irlik kuchi ta'sirida yoki zilzila natijasida tog' jinslarining qulashi.

3.11. Yer siljishi

Dengizlar, ko'llar, daryolar, jarliklar yaqinida, chuqurliklarning, qoyalarning tik qiyaliklari, shuningdek tog'larda o'z og'irlik kuchi ta'sirida yer massasining sekin siljishi.

3.12. Dovul

Tezligi 29 m/s dan ortiq bo'lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O'zbekiston Respublikasi Hidrometmarkazining hududiy muassasalari ma'lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

3.13. Do'l urishi

Do'lning bevosita ta'siri oqibatida sug'urtalangan mol-mulkni har qanday yo'qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

3.14. Jala

12 soat yoki undan kam vaqtda 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog'ingarchilik bo'lishi bilan kuzatilgan kuchli yomg'ir.

3.15. Qalin qor yog'ishi

Ushbu hudud uchun kamdan-kam (g'ayrioddiy) holat bo'lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig'ida odatdagidan ko'p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda 20 mm va undan ko'p qor yog'ishi. Xo'jasizlik sababli sekin-asta ko'p miqdorda qor to'planishi qalin qor yog'ishidan farqlanadi.

3.16. Buzib o'g'irlik qilish

Ushbu Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha sug'urta hududi sarhadidagi yopiq joyga yoki boshqa yopiq omborga kirilganligiga, shuningdek ko'rsatilgan joydan ketilganligiga ishora qiluvchi quyidagicha izlar (jinoyatkor o'zlashtirish maqsadida bu joyga noodatiy yo'l bilan kirib, u yopilishga qadar u yerda xufiyona qolgan) bo'lsa, mol-mulkni o'zlashtirish bo'lib hisoblanadi:

a) odatdagi holatda odamlar kirishi uchun mo'ljallanmagan tuynuklar (masalan, havo almashtirish tuynuklari) orqali;

b) to'siqlar, devorlar tomlardan tuynuk ochish orqali;

v) eshiklarni buzish, oynalarga shikast yetkazish, ochqich, yasama kalitlar yoki texnik vositalardan foydalanish orqali (egasi tomonidan yoki egasining topshirig'iga ko'ra boshqa shaxslar tomonidan haqiqiy kalit asosida ishlab chiqarilgan kalitlar yasama kalitlar hiosblanmaydi). Ochqichdan foydalanib buzish bo'lib buzilganlikni aniqlasa bo'ladigan, noqonuniy ravishda qulfni ochqichda yoki boshqa vositalar bilan ochish hisoblanadi. Qulfni haqiqiy kalit yoki uning nusxasi bilan ochish ochqichda ochish bo'lib hisoblanmaydi.

IV. SUG'URTA SUBYEKTLARI

4.1. Ushbu Qoidalar shartlariga ko'ra muomala layoqatiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi barcha fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda Litsenziya asosida faoliyat yurituvchi "KAFIL-SUG'URTA" AJ va uning hududiy filiallari Sug'urta sub'ekti hisoblanadi.

V. SUG'URTA OBYEKTLARI

5.1. Ushbu Qoidalar muvofiq Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan, hayoti, sog'lig'i va sug'urtalangan foydalanishga yaroqli turar joy imoratlari, xususiy mulki hisoblangan doimiy bir joyga qurilgan, o'rnatilgan va devorlari hamda tomi bo'lgan joylari-imoratlari, ko'chmas mulklari, ko'p kvartirali bitta yoki yaqin, zich joylashgan, obodonlashtirish elementlari bo'lgan umumiy yer uchastkasi bilan qamrab olingan bir nechta uydagi xususiy imoratlari bilan bog'liq mulkiy manfaatlari Sug'urta ob'ektlari hisoblanadi.

VI. SUG'URTA HODISASI

I. Sug'urta qildiruvchiga tegishli imoratlarni kompleks sug'urtalash bo'yicha:

6.1. Mazkur Qoidalar asosan Sug'urta qildiruvchiga tegishli bo'lgan imoratlarning yong'in, portlash, qattiq shamol, bo'ron, dovul, jala, ko'chki, tuproqning cho'kishi, suv bosishi, sel, yashin urishi, zilzila, do'l, qalin qor yog'ishi, qattiq sovuq tushishi, buzib kirib o'g'irlik qilish natijasida yo'qotilishi yoki shikastlanishi Sug'urta hodisasi deb hisoblanadi.

II. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsni baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urtalash bo'yicha:

6.2. Ushbu Qoidalar muvofiq sug'urta hodisasi bo'lib baxtsiz hodisa oqibatida yuzaga kelgan quyidagi hodisalar hisoblanadi:

6.2.1. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi, tan jarohati olishi;

6.2.2. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli nogiron bo'lishi;

6.2.3. Sug'urtalangan shaxsning baxtsiz hodisa tufayli halok bo'lishi.

VII. UMUMIY ISTISNOLAR

I. Sug'urta qildiruvchiga tegishli imoratlarni sug'urtalash bo'yicha:

7.1. Quyidagilar Sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- Sug'urta qildiruvchining qo'pol ehtiyotsizligi, bilib turib (qasddan) amalga oshirgan hatti-harakati yoki harakatsizligi natijasida uning imoratiga zarar yetkazilsa, (Sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslar hayoti, salomatligi, qadr qimmat, or-nomusini himoya qilish yoki fuqarolik burchini bajarish bilan bog'liq bo'lgan hollar bundan mustasno);

- Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasi tuzish vaqtida imoratlar haqida yolg'on ma'lumotlar berilsa.

7.2. Mazkur Qoidaga asosan quyidagi siyosiy tavsifga ega bo'lgan hodisalar tufayli, imoratlarga yetkazilgan zarar qisman yoki to'liq qoplanmaydi:

- urush va harbiy harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), g'alayon, inqilob, qo'zg'olon, isyon, fitna, ish tashlash, lokaut, hukumatni noqonuniy ravishda egallab olish, terrorchilik harakatlari, musodara qilish, rekvizitsiya, hukumat yoki uning tarkibiy qismi topshirig'iga asosan buzib tashlanishi yoki unga zarar yetishi harakatlari, yadro reaksiyasi, yadro nurlanish yoki radioaktiv zararlanishi yoki nobud bo'lishi holatlarida.

II. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsni baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urtalash bo'yicha:

7.3. 6.2.-bandda ko'rsatilgan voqealar sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi va ular bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi, agar:

7.3.1. voqea quyidagilar natijasida ro'y bersa:

a) har qanday tavsifdagi harbiy harakatlar (urush e'lon qilinganligi yoki qilinmaganligidan qat'iy nazar), terrorchilik harakatlari, fuqarolar urushlari, inqilob, qo'zg'olon yoki boshqa shunga o'xshash tartibsizliklar, shu jumladan ichki tartibsizliklar (mitinglar, g'alayonlar, ish tashlashlar, namoyishlar);

b) tabiiy ofatlar, yadroviy portlash, ionli radiatsiya yoki yadroviy yoqilg'i yonishi yoki sirqib chiqishi oqibatida ifloslanishi. Ushbu istisno doirasida yonish deganda atomlarning har qanday parchalanishi jarayoni ham tushuniladi.

7.3.2. voqea quyidagilar bilan bog'liq ravishda ro'y bersa:

a) epidemiya;

b) Sug'urtalangan shaxs alkogol, giyohvand yoki toksik moddalardan mast bo'lishi, transport vositasini mast holatda boshqarishi, shuningdek transport vositasini alkogol, giyohvand yoki toksik moddalardan mast bo'lgan shaxsga berishi;

v) o'z joniga qasd qilish yoki o'z joniga qasd qilishga urinishi;

g) tergov idoralari yoki sud tomonidan sug'urtalangan shaxsning harakatlarida qasddan qilingan jinoyat alomatlarini aniqlanishi;

d) tergov idoralari yoki sudning qarori bilan sug'urtalangan shaxs mayda bezorilikda yoki mushtlashishda aybdor deb topilsa, sug'urtalangan shaxs o'z fuqarolik burchini ado etishi yoki o'zining yoki uchinchi shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni va obro'sini himoya qilish bilan bog'liq harakatlari bundan mustasno;

e) tashxis qo'yish, davolash va profilaktika choralarining (shu jumladan dorilar in'eksiyasining), agar ular baxtsiz hodisa natijasida kelib chiqqan tan jarohatini davolash bilan bog'liq bo'lmasa.

7.4. Ushbu Qoidalarga muvofiq hamma turdagi kasalliklar, shu jumladan kasb va yuqumli kasalliklar, teri-tanosil kasalliklari, shu jumladan OITV va OITS, shuningdek dori-darmonlar va oziq-ovqatlarni iste'mol qilishdan kelib chiqqan kasalliklar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi.

VIII. SUG'URTA SHARTNOMASINI TUZISH TARTIBI VA MUDDATI

8.1.1. Mazkur sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta xizmatlarini sotish va ko'rsatish shartlarini belgilaydigan elektron hujjat bo'lib hisoblanadi;

8.1.2. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga axborot tizimlaridan foydalangan holda takdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllanadi;

8.1.3. Sug'urta qildiruvchi elektron arizaning to'ldirilishi shart bo'lgan kataklarini mustaqil va arizada ko'rsatilgan hujjatlarning aslidagi ma'lumotlarga qat'iy muvofiq holda to'ldiriladi;

8.1.4. Sug'urta qildiruvchi arizada ko'rsatilgan hujjatlarning ishonchliligi va asliga to'g'ri ekanligi uchun zimmasiga javobgarlikni oladi, shuningdek arizada ko'rsatilgan hujjatlarni ularning asliga muvofiq bo'lmaganida sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta to'lovni to'lashni rad etish huquqiga ega ekanligiga rozi bo'ladi;

8.1.5. Arizada ko'rsatilgan va unga kiritilgan hujjatlarning ma'lumotlari avtomatik ravishda Sug'urta shartnomasiga (Sug'urta polisiga) kiritiladi.

8.1.6. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi hamda Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotining shakllantirilgan summasiga rozi bo'lgan taqdirda, uni to'lashga qadar Sug'urta qildiruvchi mazkur Qoida matni bilan tanishish majburiyatini oladi.

8.1.7. Qoidada taklif qilinadigan sug'urta shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimida o'z roziligini tasdiqlaydi va Sug'urta shartnomasini tuzish uchun arizani (bundan buyon matnda Ariza deb yuritiladi) Sug'urtalovchining axborot tizimidan foydalangan holda onlayn tarzda to'ldirishga kirishadi.

8.1.8. Arizani to'ldirishda Sug'urtalovchi uchun sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni va sug'urta hodisasi yuz berishidan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni miqdorini (sug'urta tavakkalchiligini) ko'rsatish talab qilinadi. Barcha ma'lumotlar hujjatlarning asliga qat'iy muvofiqlikda ko'rsatilishi kerak.

8.1.9. Ariza to'ldirilganidan keyin, Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasidan foydalanishga avtomatik tarzda ruxsat beriladi.

8.1.10. Sug'urta shartnomasi taraflari Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urta polisining olinishi Sug'urta shartnomasi (Sug'urta polisi) lozim darajada imzolanganligini tasdiqlaydi.

8.1.11. Sug'urta qildiruvchining Sug'urta mukofotini to'laganligi fakti Sug'urtalovchining axborot tizimi tomonidan tasdiqlangan sana mazkur Ommaviy oferta aksept qilingan va Sug'urta shartnomasi tuzilgan sanadir.

8.2. Sug'urta shartnomasi (polislari) bo'yicha to'lovni amalga oshirish tartibi:

8.2.1. Sug'urta shartnomasi (polisi) bo'yicha to'lovni amalga oshirish Sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan axborot (onlayn) tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi;

8.2.2. To'lov tizimining himoyalangan kanaliga keyingi qayta yo'naltirish uchun ariza qabul qilinganligini tasdiqlash Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi arizani to'ldirayotganida ko'rsatib o'tgan mobil telefon raqamiga SMS-xabarni jo'natish yo'li bilan amalga oshiriladi;

8.2.3. SMS-xabar tasdiqlash kodi bilan birga olinganidan keyin Sug'urta qildiruvchi elektron to'lov tizimini tanlashi zarur, undan keyin u sug'urta mukofotining hisoblangan summasini Sug'urtalovchining hisob raqamiga o'tkazish uchun tanlangan to'lov tizimining saytiga avtomatik tarzda qayta yo'llanadi;

8.2.4. Sug'urta polisi uchun sug'urta mukofoti to'langanligi haqidagi tasdiq olinganidan keyin Sug'urtalovchining axborot tizimi Sug'urta polisini rasmiylashtirishni elektron shaklda avtomatik tarzda amalga oshiradi, Sug'urta qildiruvchining kiritgan telefon raqamiga Sug'urta polisining seriyasi, raqami va Sug'urta polisi elektron tarzda jo'natilganligi fakti haqidagi ma'lumotlarni ichiga olgan SMS-xabar jo'natilishi yo'li bilan Sug'urta qildiruvchini xabardor qiladi. SMS xabarda sug'urta polisini yuklab olish imkonini beruvchi havola mavjud bo'ladi.

8.2.5. Sug'urtalovchi to'lov provayderining harakatlari/harakatsizligi uchun, shuningdek Sug'urta qildiruvchining elektron to'lovlar tizimi va internet orqali to'lash bilan bog'liq zararlari va tavakkalchiliklari uchun javobgar bo'lmaydi.

8.2.6. Sug'urta mukofotini bank kartasi bilan to'lash bevosita Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) - karta egasi tomonidan amalga oshirilishi kerak. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi.

8.2.7. Sug'urtalovchining axborot tizimida «Sug'urta mukofotini to'lash va Sug'urta polisini rasmiylashtirish» tugmasini bosish bilan, shuningdek shakllantirilgan sug'urta mukofotini to'lagan holda Oferta yo'llangan shaxs O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq mazkur Qoida shartlariga rozi ekanligini bildiradi.

8.3. Sug'urta muddati oromgohdagi, pansionatdagi dam oladigan kuniga qarab aniqlanadi.

8.4. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi bilan Sug'urta shartnomasini tuzish davrida ofertaning ayrim bandlariga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid kelmaydigan qo'shimchalar, o'zgartirishlar kiritish va chiqarib tashlash xuquqiga ega.

IX. SUG'URTA SUMMASI, SUG'URTA TARIFI VA SUG'URTA MUKOFOTINI HISOBLASH TARTIBI

I. Sug'urta qildiruvchiga tegishli imoratlarni sug'urtalashda:

9.1. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, uning eng kam miqdori 50 000 000,00 (ellik million) so'm miqdorida bo'ladi. Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi. Sug'urta mukofoti imoratning sug'urta summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

9.2. Sug'urta mukofotining yillik tarif stavkasi miqdori 0,3 foizni tashkil qiladi.

II. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsni baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urtalashda:

9.3. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining axborot tizimi yordamida sug'urta summasini mustaqil aniqlaydi, uning eng kam miqdori 5 000 000,00 (besh million) so'm miqdorida bo'ladi. Sug'urtalovchining axborot tizimi esa Sug'urta qildiruvchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlardan va tanlangan variantlardan kelib chiqib, sug'urta mukofoti summasini shakllantiradi.

9.4. Agar Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bilan bir necha shaxsni sug'urtalasa, sug'urta shartnomasida ushbu Qoidalaridagi shartlarga muvofiq sug'urtalanishi lozim bo'lgan har bir sug'urtalangan shaxsning sug'urta summasi ko'rsatiladi.

9.5. Sug'urta mukofotining yillik tarif stavkasi miqdori 0,5 foizni tashkil qiladi.

9.6. Sug'urta mukofoti to'lovi Sug'urta qildiruvchi bank kartasi bilan bevosita karta egasi tomonidan amalga oshiriladi. Agap Sug'urta qildiruvchi bank kartasini to'lov to'lash uchun boshqa shaxsga bergan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi bu bilan bog'liq barcha tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga oladi va mazkur holatda sug'urta mukofotini to'lash Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan deb hisoblanishiga rozi bo'ladi. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi.

9.7. Maxsus eslatma.

- Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasini sug'urta tarifiga ko'paytirish orqali Sug'urtalovchi tomonidan aniqlanadi. Sug'urta mukofoti qo'shimcha qiymat solig'isiz hisoblanadi. Mazkur Qoidalariga ko'ra sug'urta mukofotlari, har bir sug'urta turi bo'yicha alohida belgilangan tarif stavkalariga muvofiq aniqlanadi va jami to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta mukofoti summasi Sug'urta qildiruvchiga umumlashtirilgan holda hisoblab beriladi.

- Alohida hollarda Sug'urtalovchi sug'urta mukofotini aniqlashda sug'urta qaltisligining tavsifi, sug'urta majburiyatlarining hajmi, sug'urta davri va qaltisligi darajasiga ta'sir etuvchi boshqa omillarni hisobga olib hisoblanadigan asosiy sug'urta tariflariga nisbatan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llashi, Sug'urta qildiruvchiga belgilangan koeffitsiyentlarga asosan hisoblangan sug'urta mukofotidan chegirmalar berishi mumkin.

- Agar Sug'urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga sug'urta to'lovi amalga oshirilsa, sug'urta summasi ushbu sug'urta to'lovi miqdorida kamayadi. Sug'urta summasi sug'urta to'lovi amalga oshirilgan paytdan boshlab kamaygan hisoblanadi.

X. SUG'URTA POLISINING AMAL QILISH MUDDATI

10.1. Sug'urta polisi bir yil bo'lgan muddatga tuzilishi mumkin. Sug'urta polisida amal qilishi davri ko'rsatiladi.

10.2. Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'lab berilishi bilan taqdim etiladi.

10.3. Sug'urta polisi bo'yicha Sug'urtalovchi majburiyatlari, Sug'urtalovchining hisob raqamiga sug'urta mukofoti kelib tushgan kundan keyingi kun, soat 00-00 da kuchga kiradi.

10.4. Tomonlar bir-birlarini shartnomani (sug'urta polisini) muddatidan oldin bekor qilish istaklari haqida mo'ljallangan sanaga kamida 30 (o'ttiz) kun qolganda xabardor qilishlari shart.

10.5. Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi sug'urta shartnomasini tuzish vaqtida Sug'urtalovchiga yolg'on ma'lumotlarni taqdim etgan taqdirda va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'rsatilgan boshqa hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

10.6. Sug'urta polisi quyidagi hollarda bekor bo'ladi:

10.6.1. Polis muddati tugaganda;

10.6.2. Sug'urtalovchi sug'urta to'lovi bo'yicha majburiyatlarini polisda ko'rsatilgan sug'urta summasi miqdorida to'liq bajarganda;

10.6.3. Sug'urtalovchi faoliyati qonunchilikda belgilangan tartib va shartlarda tugatilganda;

10.6.4. Sud qaroriga binoan sug'urta polisi haqiqiy emas deb topilganda;

10.6.5. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'rsatilgan boshqa holatlarda.

10.7. Agar sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimoli yo'qolgan va sug'urta qaltisligining mavjud bo'lishi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar natijasida tugagan bo'lsa, sug'urta polisi muddatidan avval o'z kuchini yo'qotadi.

10.8. Agar sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) amalda bo'lgan davrda sud tomonidan Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi layoqatsiz yoki layoqati cheklangan deb topilsa, mazkur Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining vasiysi uning huquq va majburiyatlarini amalga oshiradi.

10.9. Sug'urtalangan TV yoki imoratning mulkchilik shakli boshqa shaxsga o'tgan holatda Sug'urta qildiruvchining arizasiga ko'ra Sug'urta shartnomasining amal qilishi to'xtatiladi yoki sug'urta shartnomasiga tegishli bo'lgan barcha huquq va majburiyatlar uning qonunchilik asosida belgilangan vorisiga o'tishi to'g'risida boshqa sug'urta polisi beriladi.

XI. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

11.1. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsning huquqlari:

a) Sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olishi;

b) Sug'urtalovchidan sug'urta polisi haqida ma'lumot berishni so'rashi;

v) Sug'urta hodisasi ro'y berganda uning foydasiga tuzilgan sug'urta polisi bo'yicha Sug'urtalovchi majburiyatlarining bajarilishini talab qilishi;

g) Sug'urta shartnomasini tuzish paytida Naf oluvchini tayinlashi;

d) Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) amalda bo'lgan davrda Sug'urtalovchiga Naf oluvchini almashtirishni so'rab murojaat etishi;

e) Sug'urta qildiruvchi vafot etgan taqdirda Sug'urtalovchiga sug'urta polisini qayta rasmiylashtirish taklifi bilan murojaat etishi.

11.2. Sug'urta qildiruvchi/sug'urtalangan shaxsning majburiyatlari:

a) mazkur Qoidalar bilan belgilangan tartib va muddatda sug'urta mukofotini to'lashi;

b) sug'urta shartnomasi (polisi)ni tuzish paytida Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi ro'y berishi ehtimolini va u yuz bersa qancha zarar yetishi mumkinligini aniqlashda sezilarli ahamiyatga ega, unga ma'lum bo'lgan barcha holatlar haqida xabar berishi;

v) sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasini tuzish paytida xabar qilingan tafsilotlarning unga ma'lum bo'lgan sezilarli o'zgarishlari haqida xabar berishi;

g) baxtsiz hodisa sodir bo'lganda u sodir bo'lgan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Sug'urtalovchini uning sodir bo'lganligi haqida xabardor qilishi;

d) Sug'urta shartnomasi tuzilganda sug'urtalangan shaxsni va Naf oluvchini huquq va majburiyatlari bilan tanishtirishi;

e) Sug'urtalangan shaxsga Sug'urta shartnomasi haqida ma'lumot taqdim etishi;

j) sug'urtalangan TVga moddiy zarar yetganligi yoki TVning YTH ga uchraganligi haqida tegishli huquqni muhofaza qilish idoralarga o'z vaqtida xabar berishi;

z) sug'urtalangan TV va imoratni yong'inga qarshi qoidalarga to'liq mos holatda saqlashi, foydalanish bo'yicha tegishli qoidalarga amal qilishi, shikastlanishi oldini olish uchun barcha choralarni ko'rish;

i) Sug'urta hodisasi ro'y berganda zarar miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan fotosurat yoki videotasmalar bilan Sug'urtalovchini ta'minlash;

k) sug'urtalangan ob'ekt manzili o'zgarganda yoki sug'urta qildiruvchi shaxs vafot etganda Sug'urtalovchiga 10 kun ichida yozma ravishda xabarnoma berish;

l) vafot etgan shaxsning vorisi Qonunchilikda belgilangan muddatda aniqlangandan so'ng Sug'urtalovchiga yozma ravishda xabarnoma berish;

m) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda imorat va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash va boshqa ishlarini Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda amalga oshirish;

n) Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchini u sodir bo'lganligi haqida ushbu Qoidaning 12.1. va 12.8 -bandlarida ko'rsatilgan muddat va uslubda xabardor qilishi;

o) Sug'urtalovchi da'voni ko'rib chiqish va regress talabini amalga oshirish maqsadida talab qilishi mumkin bo'lgan barcha harakatlar va amallarni Sug'urtalovchining hisobidan bajarishga rozi bo'lishi;

p) polis amalda bo'lgan muddatda Sug'urtalovchidan olingan axborotni sir saqlashi, Sug'urta qildiruvchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim etishi shart bo'lgan holatlar bundan mustasno.

11.3. Sug'urtalovchining huquqlari:

a) Sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi sug'urta to'lovini talab qilganda sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchidan sug'urta shartnomasi bo'yicha majburiyatlarini, shu jumladan sug'urta qildiruvchi zimmasida bo'lgan, lekin u bajarmagan majburiyatlarni bajarilishini talab qilishi. Majburiyatlarni bajarilmasligi yoki o'z vaqtida bajarilmasligi qaltisligi sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi zimmasidadir;

b) Sug'urta shartnomasini tuzilgandan keyin Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasini tuzayotganda yolg'on ma'lumotlarni taqdim etganligi aniqlansa, sug'urta shartnomasini haqiqiy emas deb topishni va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan holatlarning qo'llanilishini talab qilishi.

v) Sug'urtalangan shaxsga o'zining ishonchli shifokor-mutaxassisini uning ahvolini tekshirish va kasallik tarixini o'rganish uchun yuborishi;

g) quyidagi hollarda sug'urta qoplamasini to'lashni rad etishi, agar Sug'urta qildiruvchi yoki Sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi:

- ro'y bergan baxtsiz hodisa haqida Sug'urtalovchiga o'z vaqtida xabar bermasa;

- sug'urta hodisasi ro'y berganligini, sug'urta hodisasi tafsilotlarini aniqlash uchun yetarli dalil va hujjatlarni taqdim etmasa;

- oldindan noto'g'ri ma'lumot berilganligi isbotlansa;

- jabrlangan shaxsni Sug'urtalovchining shifokor-mutaxassisi tomonidan ko'rikdan o'tkazish choralari ko'rmasa yoki bunga to'sqinlik qilsa;

- polis bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda;

- yuz bergan sug'urta hodisasi tafsilotlarini to'liq va xolisona aniqlashtirishga to'sqinlik qilsa;

- yuz bergan sug'urta hodisasi to'g'risida o'z vaqtida (hodisa kuni) tegishli huquqni muhofaza qilish idoralariga o'z vaqtida xabar bermasa.

d) qaltislik oshishiga olib keluvchi holatlar haqida xabar topganda, sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirishni yoki qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lashni talab qilishi;

e) sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra sug'urta hodisasining ro'y berishi ehtimolining yo'qolishi bilan sug'urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilinganda (masalan, sug'urta hodisasidan boshqa sabablarga ko'ra Sug'urtalangan shaxs vafot etganda), Sug'urtalovchi u amal qilgan davrga mutanosib bo'lgan sug'urta mukofotiga haqli.

j) sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini kamaytirishga yo'naltirilgan oldini olish choralari amalga oshirishi;

z) sug'urta hodisasi sodir bo'lishi qaltisligi darajasini tavsiflovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilishi. Sug'urta polisi amal qilish davrida qaltislik darajasi o'zgargan taqdirda, shart-sharoitdan kelib chiqib, sug'urta mukofoti miqdori oshirilishi yoki kamaytirilishi mumkin;

i) Sug'urta hodisasi yuz berganligini va keltirilgan zararlarning hajmi va sababini aniqlash imkonsiz bo'lganda, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchidan qo'shimcha zarur ma'lumot va hujjatlarni talab qilib olishga haqli;

k) Sug'urta qildiruvchi taqdim etgan hujjat va axborotni haqiqiy ekanligi /rostligi/ob'ektivligini va Sug'urta qildiruvchi polis shartlarini qanday bajarayotganini tekshirishi;

11.4. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan so'ng uch kunlik muddat ichida

sug'urtalash Qoidalari yoki ulardan ko'chirma bilan birgalikda sug'urta polisini berishi;

b) barcha zarur hujjatlarni olib, sug'urta hodisasini tan olgandan keyin polisda kelishilgan miqdor va muddatda sug'urta to'lovini amalga oshirishi;

v) Sug'urta hodisasi to'g'risida xabarnoma olgach, yetkazilgan zararni aniqlash va tegishli tashkilotlar vakili ishtirokida ma'lumotnoma tuzish;

g) Sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan zarar bo'yicha Sug'urta to'lovni miqdorini hisoblab chiqish va dalolatnoma asosida belgilangan muddatda to'lash.

d) Sug'urta qildiruvchiga maslahatlar berishi;

e) Sug'urta polisi amalda bo'lgan muddatda Sug'urta qildiruvchidan olingan axborotni sir saqlashi va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim etishi shart bo'lgan axborotni oshkor qilishga Sug'urta qildiruvchining yozma ruxsati bo'lgan holatlar bundan mustasno.

XII. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

I. Sug'urta qildiruvchiga tegishli imoratlarni sug'urtalashda:

12.1. Sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi va zararlangan yoki nobud bo'lgan imorati haqida sug'urtalovchiga 3 (uch) kun ichida yozma ravishda ariza beradi.

12.2. Sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi), Sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- Hodisa to'g'risida yozma ariza;

- Sug'urta polisi nusxasi;

- hodisasini tasdiqlovchi mutasaddi tashkilotlar (IIB, YXB, Gidremeteorologiya markazi va b.) ning hujjatlari;

- Sug'urta hodisasi natijasida zararlangan imorat/larning fotosuratlarini;

- hodisa natijasida imorat/larning zararlangan yoki nobud bo'lganligini tasdiqlovchi Mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan tuzilgan ma'lumotnoma,

- hodisada aybdor shaxs bo'lganda, ularning tushuntirish xatlari;

- Sug'urta qildiruvchi o'ziga ma'lum bo'lgan Sug'urta hodisasiga oid boshqa ma'lumotlar.

12.3. Sug'urtalangan imoratning shikastlanishini keltirib chiqaruvchi sug'urta hodisasi ro'y berganda, hodisa tafsilotlari va sababini aniqlash uchun Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi va xolis guvohlar ishtirokida dastlabki ma'lumotnoma tuziladi.

12.4. Sug'urtalovchi taqdim qilingan hujjatlar asosida imoratga yetkazilgan zarar miqdorini aniqlaydi va xolislar ishtirokida sug'urta hodisasini tasdiqlovchi dalolatnoma tuzadi. Barcha tomonlar ushbu dalolatnomaga imzo qo'yadilar va imzo qo'yish jarayonida o'z e'tirozlarini aks etishlari mumkin.

12.5. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarning to'g'riligini tekshirishi va zarur holatlarda, sug'urta xodisasiga aloqador boshqa kerakli hujjatlarni talab qilishi mumkin.

12.6. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlarni (Sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi va hodisa tafsilotlari haqida ma'lumotnoma) Sug'urtalovchiga taqdim etishi shart.

12.7. Sug'urta qildiruvchi Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda zararlangan imoratini ta'mirlash, sotish, yoqib yuborish, yo'q qilish va boshqa ishlarni Sug'urtalovchi bilan kelishgan holda (yozma ravishda) amalga oshiradi.

II. Jismoniy shaxslarni baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urtalashda:

12.8. Sug'urtalovchi sug'urta to'lovni to'lovini sug'urtalangan shaxsning yoki Naf oluvchining sug'urta hodisasi haqidagi yozma arizasi va unga ilova qilingan – mazkur qoidalarining 13.15-bandida ko'rsatilgan tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiradi. Sug'urta qildiruvchi baxtsiz hodisa sodir bo'lganda u sodir bo'lgan paytdan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Sug'urtalovchini bu haqida xabardor qilishi lozim.

12.9. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

12.9.1. Sug'urtalangan shaxs tan jarohati olganda yoki shikastlanganda:

- Sug'urta polisi;

- kasallik tarixidan (davolanish daftaridan) ko'chirma;

- rentgen suratlaridan nusxa;

- Sug'urtalangan shaxsning pasporti yoki tug'ilganligi haqida guvohnomadan nusxa.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi haqiqatda ro'y berganligini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar talab qilinishi mumkin.

12.9.2. Sug'urtalangan shaxs guruh nogironi bo'lganda:

- Sug'urta polisi;
- kasallik tarixidan (davolanish daftaridan) ko'chirma;
- TMEK ma'lumotnomasi;
- Sug'urtalangan shaxsning pasporti yoki tug'ilganligi haqida guvohnoma.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi haqiqatda ro'y berganligini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar talab qilinishi mumkin.

12.9.3. Sug'urtalangan shaxs sug'urta hodisasi natijasida halok bo'lganda:

- Sug'urta polisi;
- kasallik tarixidan (davolanish daftaridan) ko'chirma;
- Sug'urtalangan shaxsning o'limi haqidagi guvohnoma;
- Naf oluvchining pasporti.

Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta hodisasi haqiqatda ro'y berganligini hamda sug'urta to'lovi miqdorini aniqlash uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar talab qilinishi mumkin.

12.10. Sug'urtalovchi 12.9-bandda ko'rsatilgan tegishli hujjatlar taqdim etilgandan so'ng, sug'urta hodisasini tan olish yoki olmaslik haqida qaror qabul qiladi.

12.11. Agar sug'urta hodisasi ro'y berganligi munosabati bilan sug'urtalangan shaxs yoki Naf oluvchiga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan yoki sud jarayoni boshlangan bo'lsa, sug'urta to'lovi haqidagi qarorni qabul qilish jinoiy ish yoki sud jarayoni tugagunga qadar qoldiriladi.

12.12. Maxsus eslatma.

Mazkur bo'limda ko'rsatilgan tartibga muvofiq, Sug'urta qildiruvchi tomonidan har bir sug'urta turi va hodisasi bo'yicha Sug'urtalovchiga ko'rib chiqish uchun hujjatlar taqdim etiladi.

XIII. SUG'URTA TOVONI MIQDORI VA UNI TO'LASH TARTIBI

I. Sug'urta qildiruvchiga tegishli imoratlarni sug'urtalashda:

13.1. Sug'urta to'lovi Sug'urta qildiruvchiga O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq to'lanadi.

13.2. Sug'urta to'lovi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bosh boshqarmasi hamda "O'zkommunxizmat" o'zbek agentligi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy to'plamlardan foydalangan holda hisob kitob qilinib, lekin shartnomada belgilangan Sug'urta summasi miqdoridan oshmagan holda belgilanadi.

13.3. Agar sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi sug'urta qiymatidan kam miqdorda o'rnatilgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan zararni sug'urta pulining sug'urta qiymatiga mutanosib bo'lgan nisbatda qoplab beradi. Sug'urta puli Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lsa, shartnoma Sug'urta pulining Sug'urta qiymatidan ortiq bo'lgan qismida o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaydi.

13.4. Sug'urtalovchi taqdim etilgan hujjatlarni o'rganib chiqib, Sug'urta hodisasi ro'y berganligi yoki Sug'urta hodisasi ro'y bermaganligi haqida qaror qabul qiladi.

13.5. Sug'urta to'lovi, sug'urta hodisasini tasdiqlovchi dalolatnomaga imzo qo'yilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) bank kuni ichida Sug'urta qildiruvchiga to'lab beriladi.

13.5. Sug'urta to'lovini to'lab berish Sug'urta qildiruvchining hisob raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

13.6. Sug'urta hodisasi ro'y berganda, Sug'urtalangan imoratlariga tegishli boshqa yana amal qilinayotgan Sug'urta shartnomasi mavjud bo'lsa yoki zarar yetkazgan shaxsdan Sug'urta qildiruvchi foydasiga moddiy zarar undirilgan bo'lsa, to'langan yoki qoplangan zararni chegirib tashlagan holda Sug'urta to'lovi to'lab beriladi.

13.7. Agar zarar miqdori sug'urta voqeasida aybdor tomonidan to'liq qoplangan bo'lsa va/yoki qoplanadigan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi sug'urta to'loviga bo'lgan o'z huquqini yo'qotadi.

II. Jismoniy shaxslarni baxtsiz hodisalardan oilaviy sug'urtalashda:

13.8. Sug'urta hodisasi ro'y berishi bilan bog'liq sug'urta to'lovi:

13.8.1. Sug'urtalangan shaxs tan jarohati olganda va/yoki sog'lig'iga boshqa zarar yetganda:

- «Baxtsiz hodisalardan ehtiyot shart sug'urta qilishning barcha turlaridan sug'urta hodisasi

oqibatida tan jarohati olishi bo'yicha sug'urta to'lovni miqdorini aniqlash jadvali» (quyida «Sug'urta to'lovlari jadvali» deb ataladi) ga muvofiq sug'urta puliga nisbatan foizlarda to'lanadi.

Bir baxtsiz hodisa oqibatida turli tashxislar bilan ta'riflanuvchi bir nechta tan jarohati olinganda, sug'urta to'lovining miqdori hamma tan jarohatlar bo'yicha to'lovlarning yig'indisini tashkil qilib, har bir sug'urtalangan shaxs uchun belgilangan sug'urta pulidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

«Sug'urta to'lovlari jadvali» ga kiritilmagan tashxis qo'yilgan tana jarohati olinganda, to'lov Sug'urtalovchining ishonchli shifokor-mutaxassisining xulosasiga asosan «Sug'urta to'lovlari jadvali» ning tan jarohatiga to'g'ri keladigan, tegishli bo'limida ko'rsatilgan maksimal to'lov miqdori chegarasida amalga oshiriladi.

13.8.2. Sug'urta to'lovi miqdori kuyidagicha belgilanadi, Sug'urtalangan shaxs:

- I guruh nogironi bo'lganda: sug'urta summasining 75 (etmish besh) foizi;
- II guruh nogironi bo'lganda: sug'urta summasining 50 (ellik) foizi;
- III guruh nogironi bo'lganda: sug'urta summasining 30 (o'ttiz) foizi.

13.8.3. Sug'urtalangan shaxs halok bo'lganda ushbu Sug'urtalangan shaxs bo'yicha oldin amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarini chegirib qolgan holda sug'urta puli miqdorida bo'ladi.

13.9. Sug'urta hodisalari bo'yicha barcha to'lovlarning umumiy miqdori sug'urta pulidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

13.10. Sug'urtalangan shaxs sug'urta hodisasi natijasida halok bo'lgan holatlarida, sug'urta to'lovi Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) da ko'rsatilgan Naf oluvchiga to'lanadi.

13.11. Sug'urta davri mobaynida Sug'urtalangan shaxs bilan sodir bo'lgan bir yoki bir nechta sug'urta hodisasi bo'yicha amalga oshirilgan sug'urta to'lovlarning umumiy miqdori ushbu Sug'urtalangan shaxsning sug'urta pulidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

14.12. Sug'urta to'lovni to'lovi sug'urtalovchiga sug'urta da'vo arizasi va sug'urta hodisasini tasdiqlovchi barcha zarur xujjatlar taqdim qilinganidan so'ng, 15 (o'n besh) kun ichida Sug'urtalangan shaxsning yoki Naf oluvchining hisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

XIV. SUBROGASIYA

14.1. Agar Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'lovni to'lab berilsa, to'langan tovon miqdorida yetkazilgan shikast va zararlar uchun javobgar shaxsга nisbatan qoplangan zarar miqdorida da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi.

14.2. Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga unga o'tgan da'vo qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha tegishli hujjat va dalillarni taqdim etishi va ma'lumotlarni yetkazishi shart.

14.3. Agar Sug'urtalovchi yetkazilgan shikast va zararlar uchun javobgar shaxsга nisbatan o'zining da'vo qilish huquqidan voz kechsa, yoki Sug'urta qildiruvchining aybi bilan da'vo qilish huquqidan foydalanishning imkoni yo'qotilsa, Sug'urta qildiruvchidan to'langan sug'urta tovonini qaytarishni talab qilishga haqli.

14.4. Agar Sug'urta qildiruvchi imoratga yetkazilgan shikast va zararlar uchun uchinchi shaxslardan tovon pulini olgan taqdirda, Sug'urtalovchi sug'urta shartnoma (polisi) shartlariga ko'ra to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta tovonining uchinchi shaxslardan pul ko'rinishida yoki mol-mulk qiymatida olingan summaning o'rtadagi farqini qoplab beradi.

XV. FORS-MAJOR

15.1. Agar Tomonlar mazkur Qoidalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasliklari yengib bo'lmas kuch (fors-major) shart-sharoiti sababli yuzaga kelsa, ular javobgarlikdan ozod bo'ladilar. Yengib bo'lmas kuch ta'sirida bo'lgan tomon boshqa tomonni bunday shart-sharoit yuzaga kelganligi va taxminan qancha davom etishi mumkinligi to'g'risida bir-birlarini darhol xabardor qilishlari shart. Bunda Tomonlar sug'urta shartnoma (polisi) ning bajarilgan va bajarilmagan qismlari yuzasidan o'rnatilgan tartibda yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

XVI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

16.1. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi)dan kelib chiqadigan barcha nizolar o'zaro muzokaralar orqali hal etiladi. Tomonlarning bir biriga e'tiroznomalarini ko'rib chiqish muddati 15 (o'n besh) kun qilib belgilanadi.

16.2. Vujudga kelgan nizolar bo'yicha muzokaralar orqali kelishuvga erishib bo'lmagan taqdirda,

ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan tartibda tegishli sud orqali hal etiladi.

XVII. OFERTANING KUCHGA KIRISH TARTIBI

17.1. Mazkur Oferta “KAFIL-SUG’URTA” AJ Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

17.2. Mazkur Ofertaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish “KAFIL-SUG’URTA” AJ Boshqaruv raisi buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.